



UDK:811.113:512.133+87'1 (575.1)

Guljaxon SHARIPOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: guljaxonsharipova758@mail.com

O‘zMU dotsenti, f.f.d G.Kurbonova taqrizi asosida

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MAQOLLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada fransuz va o‘zbek tillarida maqollarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Unda maqollarning argumentativ funksiyasi obrazli motivlanganligi orqali izohlanadi. Fransuz va o‘zbek tilidagi maqollarning etimologiyasi ularning genetik belgilarini ko‘rsatadi. Shuningdek, proverbial frazeologizmlarning xalq hayotini, turmush tarzini, dunyoqarashini, urf-odatlarini ifodalovchi argumentativ xususiyatlarga ega ekanligi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: maqol-matal, proverbial frazeologizm, argumentativ funksiya, etimologiya, genetik belgi, urf-odat.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСЛОВИЦ ВО ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье анализируются особенности пословиц во французском и узбекском языках. В ней аргументативная функция пословиц объясняется через образное толкование. Этимология пословиц во французском и узбекском языках показывает их генетические признаки. Также анализируется, что пословичные фразеологизмы обладают аргументативными характеристиками, которые отражают жизнь, уклад жизни, мировоззрение, обычаи народа.

Ключевые слова: пословица-матал, пословичный фразеологизм, аргументативная функция, этимология, генетический признак, традиция.

NATIONAL AND CULTURAL FEATURES OF PROVERBS IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article analyzes the features of proverbs in French and Uzbek. In it, the argumentative function of proverbs is explained through figurative interpretation. The etymology of proverbs in French and Uzbek shows their genetic characteristics. It is also analyzed that proverbial phraseological units have argumentative characteristics that reflect the life, way of life, worldview, and customs of the people.

Key words: proverbial matal, proverbial phraseology, argumentative function, etymology, genetic trait, tradition.

Dunyoda ko‘pgina millatlarning o‘ziga xosligini ifodolovchi iboralar mavjud. Masalan, fransuzlar haqida “ustasi farang” ifodasi qo‘llanilsa, nemislar haqida so‘z ketganda, “nemischa hisob-kitob” esga olinadi yoki yuksak zakovat, tinib-tinchimaslik xususiyati ko‘proq yaponlarga xos ekanligi ta‘kidlanadi. Yunonlarning “dunyodagi jamiki odamlarni yunonlar va yunon bo‘lishni istovchilar”ga ajratishi asrlardan-asrlarga o‘tib kelmoqda.

Inson qancha ko‘p tilni bilmasin, bu tillarning xususiyatlarini bir-biriga qiyoslab o‘rganmasin, uning uchun eng mukammal va qadrdon tili bitta, bu – ona tilidir. Boshqa har qanday tilni u ona tili vositasida o‘rganadi. Bir necha tilni bilish esa bir qulfga tushadigan bir necha kalitni topish bilan barobar.

Bugunga kelib chet tillarni mukammal bilish davlat va jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutmoqda, ayniqsa, xalqaro arenada o‘z ovozi va o‘rniga ega bo‘lib borayotgan yoshlarimiz uchun chet tilini butun jozibasi, sir-asrori bilan o‘rganish zaruratga aylanib qoldi. Bu talablar yangi-yangi tadqiqotlarni talab etadi. Shulardan biri – filologik yo‘nalishda qiyosiy-tipologik, etimologik izlanishlardir.

“Etimologiya” so‘zlarning va frazeologik birliklarning kelib chiqish tarixini o‘rganar ekan, so‘z etimologiyasi bilan frazeologik birliklar etimologiyasi o‘rtasida katta farq borligini kuzatamiz. Biror so‘zning kelib chiqish tarixi bilan, FBning yaratilish tarixi bir-biriga mos kelmaydi, chunki FBlar so‘zga nisbatan murakkabroq semantik tuzilishga egadir [1].

Masalan, fransuzlarda “Vin” – vino- so‘zi lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, qo‘rqinch ma‘nosini ham beradi, “vin

cuit”, ya‘ni kuydirilgan vino atamasi esa, 1538 yili, “vin doux” – shirin vino atamasi 1564 yili ushbu xildagi vinolar ixtiro qilinishi bilan fransuz tiliga kirib kelgan. “Quand le vin est tiré, il faut le boire” [4]. PF esa tamomila ko‘chma ma‘noni anglatib, boshlangan ishni yakunlash kerak, degan ma‘noda ishlatiladi. So‘zma-so‘z vino quyildimi, uni ichish kerak, – deb tarjima qilish mumkin [3].

“Raisin”–uzum so‘zi fransuz tiliga XIII asr oxirlarida lotin tilidan o‘zlashgan, “Racimus”, “class racimus” – bir bosh uzum [3]. Trouver les raisins tropes verts – uzumni hali juda xom deb hisoblash yoki ko‘chma ma‘noda “o‘zi yetolmagan narsaga puf-sassiq deyish” mazmunini ifodalaydi. Mazkur iboraning yaratilish tarixi Lafontenning “Tulki bilan uzum” masaliga borib tutashadi. Unga ko‘ra, och tulki baland shoxda osilib turgan uzumni ko‘radi, har qancha harakat qilsa ham yetolmaydi va *Ils sont tres verts – ular juda xom ekan*, deydi.

FBlar etimologiyasi, ushbu birlikning paydo bo‘lish manbaini va tarixini sharhlash, frazeologizm va ularning variantlari, shuningdek, sinonimlari orasidagi genetik bog‘liqlikni o‘rganadi. «Ba‘zi hollarda etimologik tahlil ma‘lum bir iboraning yaratilgan joyi, agar iqtibos bo‘lsa muallifni aniqlash muhitini yuzaga keltirishi mumkin» deydi V.Pizani o‘zining etimologik tahlil muammolariga bag‘ishlangan asarida [6].

Ba‘zi maqollar orqali muayyan ma‘noda millatning xarakteri ham aks ettiriladi. Fransuzlar: *Il faut compter sept fous avant de couper*; o‘zbeklar: *Yeti o‘lchab bir kes va ruslar: Семь раз отмерь, один раз отрежь, ya‘ni yetti*

o'lchab bir kes, deya muayyan vaziyatga baho bersalar, inglizlar: ikki o'lchab bir kes – Measure twice cut once, – deydilar [4]. Shuning o'ziyoq fransuz, o'zbek va ruslarning maqol doirasida o'xshash jihatlarni ko'rsatsa, inglizlar bilan farqli tomonlarni, har bir millat faoliyatidagi o'ziga xoslikni namoyon qiladi.

Fransuzlarning xarakteri, tashqi qiyofasi, o'zgaralar bilan munosabati, ichki va tashqi dunyosi kabi xislatlari ko'chma ma'noda hayvonlar nomlariga bog'lanib, qaysidir jihatlarni o'xshatish orqali ta'riflanadi. Quyidagi tashbehli iboralarda fransuzlarga xos milliy-madaniy xususiyatlar namoyon bo'ladi: *Le français dort comme un lion, a une faim de loup, un oeil de lynx, une vie de chien. Pour être toujours prêt a se faire aussi gros qu'un boeuf ou a passer par un trou de souris, il lui faut être rusé comme un renard. Quoique l'amour, dont il fait souvent son cheval de bataille, le rendre gai comme un pinson et léger comme une plume, il n'aime pas faire le pied de grue et rester comme l'oiseau sur la branche. Si donc on lui pose trop de lapins, surtout par un froid de canard, il aura vite la puce a l'oreille et (...) n'hésitera pas a prendre le taureau par les cornes (...). Il en tombera peut être malade comme un chien, au points d'en avoir une fièvre de cheval, mais il saura rester, sur ses mésaventures, muet comme une carpe car, s'il est parfois bavard comme une pie, il sait aussi mettre un boeuf sur sa langue, avouer que c'est un drole de zebre[4].*

Rus faylasufi A.Karmin [5] fransuzlar biror ishni boshlashdan oldin obdon o'ylab, reja, dastur tuzadi, kodeks, mo'ljalni oldindan rejalashtiradi, keyin ishni boshlaydi, deb yozadi. Fransuz adiblarining asarlarida motivlarni anglash, tahlil qilish yuqori turadi. Fransuz yozuvchilarida ichki hissiyotni tasvirlash ustunlik qiladi, sevgi-muhabbat, “sevgi fani” fransuz adabiyotining mevasi hisoblanadi.

Fransuzlar to'g'risida inglizlar: “Les français sont plus sage qu'il ne semble” – Fransuzlar ko'rinishlariga qaraganda ancha aqlli, deb aytadilar. Italyanlar esa “Il n'y a rien de mieux que ce que les français font bien et rien de pire que ce qu'ils font mal” – Fransuzlar yaxshilik qilsa undan a'losi yo'q, yomonlik qilsa undan badtari yo'q, der ekanlar. Fransuz tilida mo'ylovsiz bo'sa pishloqsiz taom degan ibora mavjud, ya'ni: *Baiser sans moustache - repas sans fromage*. Ushbu ibora faqat fransuzlargagina xos. Rus tilida “*Поцелуй без усы – обед без сыра*” degan ibora yo'q [2]. Chunki fransuzlardagi bu ibora – ushbu millat odamlarining har bir taom bilan pishloq iste'mol qilishi hamda Fransiyada 300dan ortiq pishloq turining mavjudligi kabilar bilan bog'liq bo'lgan milliy o'ziga xoslikka ega bo'lgan proverbial frazeologizm hisoblanadi. Yuqorida qayd etganimizdek, bunday iboralarning muqobillari bo'lmaydi, faqatgina so'zma-so'z tarjima yoki sharh berish orqali ifodalanadi.

Ushbu misolda stilistik okkazonal transformatsiya hodisasini ham kuzatish mumkin: *Voilà, dis-je, un dimanche sans viatique, pour moi, c'est comme-il leva la main. Pas de comparaisons profanes surtout dit-il. Peut être pensait -il, au baiser sans moustaches ou rosbif sans moutarde [4].*

O'zbek tili naqadir boy til. Uning imkoniyatlari milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalaydigan so'z, gap, so'z birikmalari, maqollar, frazeologik birliklar, aforizmlar fransuz va rus tillaridagi mavjud bunday ifoda shakllaridan ko'p kam emas. Alisher Navoiy o'z davrida turkiy tilning boyligi va afzal jihatlarga dalil sifatida turkiy xalqlar tomonidan qo'llaydigan so'zlarni keltirib, bu tilning imkoniyatlari haqida muayyan tasavvur hosil qilishga imkon yaratadi. Masalan, otlarning yoshi va zotiga qarab qulun, toy, g'o'non, do'non, to'lan, to'buchoq, arg'umoq, yaka, g'obu shaklida ishlatilishining ta'kidlanishi e'tiborli. O'rdaklarni nomlashda jo'rki va erka, suqtur va olmabosh chaqirqanot va temirqanot, alapaka va bog'chol kabi atamalar qo'llanilgan [2]. Oradan ikki asr o'tib, fransuz adibi Fransua Rablening “Gargantuya va

Pantagryuel” asarida 153 xil o'yin, 138 xil ovqat, 98 xil ilon nomini fransuz tilidan topib ishlatishi, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug'atayn”da tutgan yo'lga o'xshashligini Pirimqul Qodirov “Til va el” kitobida aytib o'tgan. Demak, o'zbek va fransuz tillaridagi so'zlarni qiyosiy o'rganish bo'yicha tadqiqotlar XIV–XV asrlarda boshlangan.

Faqat o'zbek xalqi hayotini, turmush tarzini, dunyoqarashini, urf-odatlarini ifodalovchi proverbial frazeologizmlar – bu o'z xalqi maqollari orasidagi milliy paremiologik qatlam hisoblanadi. Bu qatlamga mansub maqol va matallarning milliy o'ziga xosligi – bevosita o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy va maishiy hayotini aks ettirishda, o'zbeklarga oid toponomika, o'simliklar, hayvonlarning ishtirok etishida, o'zbek xalqiga xos xarakter, xislatlarning ifodalanishida, urf-odatlar va marosimlarning mavjudligi hamda adabiy-badiiy tilidadir. O'zbek tilidagi maqol, matal va iboralar milliy-madaniy xususiyatlariga bog'lab oxirigacha to'liq o'rganilgan, deb bo'lmaydi. O'rganilgani sayin ularning ochilmagan qirralarini topish mumkin. O'zbek tilida xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini ifodalovchi PFlar asrlar osha odamlar og'zidan-og'ziga o'tib, nutqimizga jilo berib kelmoqda. Jumladan, *Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi* iborasi tarkibidagi milliy bosh kiyimi bo'lmish «do'ppi» komponenti orqali milliylik aks ettirilmoqda. Do'ppi kiyish uchun bosh omon bo'lishi kerak. Ko'chma ma'noda “*tashvishlanma, jafa chekma, bu gal yutqazgan bo'lsang, keyingi safar yutasan, jonajon ro'zg'oringdan ayrilding, nadomat chekma, g'arib boshing omon bo'lsa do'ppi topilib, ishli ro'zg'orli bo'lasan*”, kabi dalda beruvchi ibora tarzida ishlatiladi. Tavakkal, shahd ma'nolari ham bor. Do'ppini ol, desa bosh olmoq iborasida ikki tomonlama milliylik seziladi. Birinchidan, «do'ppi» komponenti bo'lsa, ikkinchidan ushbu proverbial frazeologizm ma'no jihatidan o'zbek millatining ma'lum ma'nodagi xarakterini ko'rsatadi. Do'ppisini osmonga otmoq iborasi, asosan, o'zbeklarga xos bo'lib, uning o'rniga kepkasini yoki shlyapasini osmonga otmoq ko'rinishida ishlatib bo'lmaydi. Shuningdek, *Bosh yorilsa do'ppi ichida, qo'l sinsa-yeng ichida* mazmunidagi maqolda dardini birovga doston qilishga iymnadigan, kamtarlik xislatiga ega bo'lgan millatning xarakteri do'ppi komponenti orqali milliylik aks ettirilgan. *Atlasni ko'rmoq bor, kiyimoq yo'q iborasi* “*Ko'rmoq bor, yemoq yo'q*” maqolidan milliy lashtirib, o'zgartirilgan frazeologik birlik sifatida, atlas ham milliy mato sifatida hammaga tanish.

Ba'zan maqol va matallar frazeologizmlar tarjimasining sanab o'tilgan usullari (ekivalent, analog, adekvat va kalka)dan birortasiga to'g'ri kelmaydi. Tarjimon har qancha tajribali bo'lmasin, tarjimada ular mazmunining tavsifi katta bo'lib ketadi. Bunday hollarda tarjimon boshqa tildan qilingan tarjima usulini olib kirishi mumkin. Masalan, *L'Habit ne fait pas le moine* maqolini o'zbek tiliga berish g'oyat mushkul. So'zma-so'z tarjima, shubhasiz, ma'nosizlikka olib keladi. Rus tiliga u bunday tarjima qilingan: *He всяк танцор, кто пляшет*. Ruscha analogda biz maqol negizida yotgan ramzni to'la his etamiz. Fransuzcha maqol ma'nosini berish uchun ruscha analogni so'zma-so'z tarjima qilish mumkin: *O'yinga tushgan bilan — o'yinchi bo'lmaz*. Bu og'ir tarjimani cheklab o'tish imkonini beradi.

Ayrim fransuzcha maqol va matallarda na qofiya, ohangdoshlik bor, ularni oddiy gaplardan ajratib bo'lmaydi. Quyidagi maqol va matallar shular jumlasidandir:

L'espérance est la viatique de la vie, celui qui envoie les bouches, envoie aussi les vivres, celui qui avale une brique, en avalerait bien deux va boshqalar [2]. O'zbek va boshqa tillarda bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bu turkumdagi maqol va matallar boshqa tillarga nisbatan oson tarjima qilinadi, qofiya va ohang

yoki tovushlarning ohangdoshligiga rioya qilingan proverbial hikmatlarga o'xshagan emas.

Maqol va matallarda milliy o'ziga xoslikni ifodalash xususida kelsak, bu – g'oyat og'ir ish. Aynan milliy o'ziga xoslik stilistik bo'yoqlarda katta rol o'ynaydi. Kitobxon asliyatda yoki tarjimada o'qishiga bog'liq ravishda stilistik kolorit turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, fransuzlar eng avvalo maqol va matallarning nutq uslubiga mansubligiga e'tibor qiladi. U qo'llanayotgan maqol va matalning asarning umumiy fabulasi, muayyan shartlari, obrazdagi tipik qahramonlar bilan uyg'unligi haqida o'ylaydi. Milliy kolorit uning e'tiborini tortmaydi. Aksincha, fransuz asari tarjimasida o'zbek kitobxonini maqollarning nutq uslubiga mansubligidan ko'ra milliy kolorit ko'proq jalb qiladi.

Binobarin, bu yerda ikki jarayon o'zaro hamkorlik qiladi: bir tomondan, kitobxonning ona tiliga odatlanishining ma'lum darajasi, ikkinchi tomondan – ifoda shakli va maqoldagi mulohaza(lar) mazmuniga o'xshab, g'ayrioddiylik, yangilik tufayli qilingan tahlil. Albatta, uning ham, buning ham rolini oshirib yubormaslik kerak, biroq idrok etishning bu psixologik xususiyatini tarjimon mensimasligi kerak emas. Shu bois, maqol va matallarni tarjima qilganda ularning milliy o'ziga xosligi saqlab qolinishi kerak. Buning uchun faqat bitta usul bor – ularning o'zbek tilining alohida, tarjimaning boshqa usuliga to'g'ri kelmaydigan maqol va matallar transliteratsiyasi bilan omuxta bo'lib kelgan vositalari ila ijodiy qayta tiklash. Ko'r-ko'rona kalkalash, albatta, bu vazifani bajarishga yaramaydi. Buning uchun yanada qulayroq usullar kerak.

Maqol va matallarning o'zbekcha tarjimasida quyidagi hollar uchrashii mumkin: 1. Tarjimada asliyatning milliy koloritini tarjima tilining milliy o'ziga xosligi bilan almashtirish. Masalan: *L'abime appelle l'abime*. – Beva xotinga Buxorodan it huradi. “Après fait ne vaut souhait – Hayit o'tgandan so'ng hironi yuzingga surt”. Keltirilgan analoglar milliy realiya-so'zlar hisoblanadi: Buxoro – O'rta Osiyoning tarixiy shaharlaridan biri; hino – musulmonlar bayramida barmoqlarga surladigan pardoz bo'yog'i [7].

Bu hol fransuz tilidan o'zbek tiliga maqol va matallar tarjimasiga xos emas, chunki u tarjima nuqsoni hisoblanadi.

Shunday bo'lsa-da, bunday hollar tarjima amaliyotida uchrab turadi. Asliyatning xolis maqoliga yorqin ifoda etilgan milliy o'ziga xoslik tusini berish asliyatga putur yetkazish bilan ham bog'liq.

2. Asliyati tili koloritini tarjima qilinayotgan til koloriti bilan almashtirish: Qui langue a à Rome va. – Язык до Киева доведёт. – So'rab-so'rab Makkaga boribdi.

Garchi bunday tarjimalar o'zbek kitobxoniga juda tushunarli va yaqin bo'lsa-da, ular asliyat to'g'risida to'g'ri tasavvur bermaydi.

Shunday qilib, quyidagi hollarda tarjima soxta milliy kolorit bilan kelib chiqadi: a) maqol va asliyati ekvivalenti tarkibiga kishi ismlari va milliy o'ziga xos realiyalarni kiritish bilan so'zma-so'z tarjima qilganda; b) tarjima qilinayotgan tilning milliy o'ziga xos maqol va matallarini tarjima qilganda.

3. Milliy-fransuz koloritini xolis kolorit bilan almashtirish:

Asliyatdagi maqol va matallarning milliy o'ziga xos (kolorit)ligini xolis vositalar bilan almashtirish hollari ham uchrab turadi. Masalan: Se que Jeannot n'apprend pas, Gros - Jean ne le saura jamais. - Yoshlikda o'rgangan hunar, o'zingga o'ljaga qolar.

Katta imkoniyatlarga ega bo'lgan bu usul ma'lum kamchiliklarga ega:

a) odatda tarjimada milliy o'ziga xos koloritning yo'qolishi umuman uslubiy ekpressiyaning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Ammo agar tarjimon uslubiy ekpressiyaning boshqa sifatleri bo'yicha tarjima qilinayotgan maqolga ekvivalent vositalar topsa, vazifa ado etilgan bo'lishi mumkin [2].

b) bunday uslubni ko'p qo'llab yuborish asarning tarjimada “rangsizlanishi”ga olib keladi. Shu boisdan, shunday almashuvga imkon beruvchi zarur hollardagina, kontekst talabi doirasida murojaat qilgan yaxshi. Ammo bu shunday almashiruvning asar milliy koloriti tusi, asar qahramonlarining nutq tavsifi imkoniyatlarini to'g'ri baholash bilan bog'liq va h.k.

Shunday qilib, yorqin ifoda etilgan milliy buyoq hisoblanuvchi unsurlarni bartaraf etish uslubi bilan milliy bo'yoqli maqol va matallarni boshqa tilga tarjima qilish mumkin bo'ladi. Ammo bu milliy maqol va matal kontekstlarida qo'llashning ma'lum sharoitlarini hisobga olishni talab etadi.

ADABIYOTLAR

1. Даль В.И. Пословицы русского народа. Сборник В. И. Даля/авт.-сост. Даль В.И. - М.: Рус. яз. Медиа, 2004. - 814 с.
2. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari: Filol. fanl. dokt.... diss. avtoref. – T.: Fan, 2000. – B.5.
3. Nosirov A.A. Fransuz, o'zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlari. Filol.fan.dokt. (DsS) diss... avtoref. – T., 2016. – 32 b.
4. Rey A. Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions. – P.: Le Robert, 1997. – 1085 p.
5. Кармин А. С. Культурология. 2-е изд., перераб. и доп. - СПб.: Издательство «Лань», 2003. - 928 с.
6. Черкасский, М.А. Опыт построения функциональной модели одной частной семиотической системы. // Паремнологический сборник: Пословица, загадка (структура, смысл, текст). - М.: Наука. - 1978. – С. 35
7. Sodikovna, Kurbonova Gulsara. “Fransuz va o'zbek tillaridagi to'qima frazeologizmlarning chog'ishtirma tahlili”. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.1 (2021): 222-226.